



BOLALARDA AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING OILAVIY MODELLARI

Fayzullayeva Dilmura Husan qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ramazonov Mirkamol Ravshan o‘g‘li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17786023>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-noyabr 2025 yil
Ma‘qullandi: 28-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 30-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

Axloqiy tarbiya, oilaviy model, avtoritar, demokratik, liberal, beparvo, milliy-an‘anaviy, diniy-axloqiy, bola rivoji, ota-ona munosabati.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy oilaviy modellarning mazmuni va ularning farqlari yoritilgan. Avtoritar, demokratik, liberal, beparvo, milliy-an‘anaviy va diniy-axloqiy yondashuvlarning bolaning axloqiy rivojiga ta‘siri qisqa ilmiy tahlil asosida ochib berilgan. Shuningdek, mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi orqali oilaviy muhitning axloqiy shakllanishdagi o‘rni asoslab beriladi

Bugungi globallashuv va raqamli axborot zamonida inson shaxsining barkamol rivojlanishi va to‘g‘ri shakllanishi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxs kamolotida esa axloqiy tarbiya asosiy omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, inson hayotining ilk bosqichi –maktabgacha yosh davrida beriladigan tarbiya kelgusida uning jamiyatdagi tutgan o‘rni, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy fazilatlarini shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni chuqur anglay olmaydi, ammo ayni paytda ular ko‘rgan, eshitgan va his qilgan narsalarni tezda o‘zlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, bolalarning axloqiy ongini shakllantirishda ular bilan ishlayotgan pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalarning shaxsiy namunalari, tutumlari, munosabatlari asosiy o‘rinni egallaydi. Tarbiyaning bu turi orqali bolada insoniy fazilatlar – mehr-shafqat, rostgo‘ylik, halollik, sabr-toqat, hurmat va vatanparvarlik singari tushunchalar asta-sekin shakllanib boradi.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzu bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlar bolalarning axloqiy tarbiyasi, avvalo, oiladagi muhit, ota-onaning munosabati hamda tarbiya uslubiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Baumrind tadqiqotlarida oilaviy tarbiya modellari farqlari ilmiy asoslangan, Piaget va Kohlberg esa axloqiy rivojlanishning psixologik jarayonlarini yoritadi. Mahalliy manbalar (Nishonova, Karimov) esa milliy qadriyatlar va ota-ona namunasi axloqiy shakllanishda yetakchi omil ekanini ta‘kidlaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir oilaviy model bolaning axloqiy ongiga turlicha ta‘sir qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mavzu bo‘yicha ilmiy manbalarni tahlil qilish, ularni solishtirish, umumlashtirish va mazmuniy tahlil qilish metodlari qo‘llanildi. Oila tarbiyasining asosiy modellari – avtoritar, demokratik, liberal, beparvo, milliy-an‘anaviy va

diniy-axloqiy yondashuvlar ilmiy adabiyotlarga tayangan holda qiyosiy o'rganildi. Har bir modelning bolaning axloqiy rivojiga ta'siri aniqlanib, ularning afzallik va kamchiliklari umumiy xulosalandi.

Tahlil va natijalar. Bola odob-axloq me'yorlarini, yaxshi va yomonni farqlashni, boshqalar bilan muloqot qilish madaniyatini ota-ona va oiladagi kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali o'rganadi. Shu sababli axloqiy tarbiyaning asosiy manbai sifatida oilaviy muhitning sifati, undagi tarbiya uslub va modelining to'g'ri tanlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik adabiyotlarda bolalarga axloqiy tarbiya berishda uchraydigan bir necha asosiy oilaviy modellarga e'tibor qaratiladi. Bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishda quyidagi umumiy oilaviy modellardan foydalaniladi:

1. Avtoritar model
2. Demokratik model
3. Liberal model
4. Beparvo (e'tiborsiz) model
5. Milliy-an'anaviy model
6. Diniy-axloqiy model.

Avtoritar oilaviy model ota-ona tomonidan qoidalar, talablar va intizomning keskin qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Bu yondashuvda bolaga erkinlik cheklangan bo'lib, ota-ona qarorlari muhokamasiz bajarilishi kerak bo'lgan buyruq sifatida qabul qilinadi. Adabiyotlarda avtoritar tarbiya, odatda, yuqori nazorat va past emotsional iliqlik bilan ajratib ko'rsatiladi. D. Baumrindning tadqiqotlarida avtoritar model ota-onaning "talabchan, ammo sovuq munosabatli" tarbiya usuli sifatida ta'riflangan bo'lib, bunda bolaga intizom va bo'ysunish eng asosiy qadriyat sifatida singdiriladi. Ushbu modelda ota-ona "Men aytdim — bo'ldi" tamoyiliga tayanadi va xulqni boshqarishda jazolash usullaridan ko'proq foydalanadi.[2] Bu esa bolaning axloqiy rivojlanishida ongli qaror emas, balki qo'rquvga asoslangan itoatkorlikni shakllantiradi, deb ta'kidlaydi J. Piaget ham.[3]

O'zbek oilalariga oid mahalliy tadqiqotlarda avtoritar model ko'proq an'anaviy oilalar, ayniqsa ko'p bolali yoki katta avlodning ta'siri kuchli bo'lgan oilalarda uchrashi qayd etiladi. Bunday oilalarda kattalarning so'ziga itoat — axloqiy me'yor sifatida qabul qilinadi. Lekin muallif ta'kidlaganidek, haddan tashqari qattiqlik bolada qo'rquv, mustaqil fikrlashdan chekinish, o'z fikrini aytishdan uyalish kabi xususiyatlarni kuchaytiradi.[4]

Avtoritar modelda bolaga buyruqbozlik ustuvor bo'lsa, demokratik oilaviy modelda ota-ona va bola o'rtasidagi munosabat tenglik, hurmat va tushuntirishga asoslanadi.[2] Bunday muhitda bola qoidalarining mazmunini anglab, axloqiy qarorlarni ongli tanlaydi, chunki ota-ona jazo berishdan ko'ra sababni tushuntirishga ahamiyat beradi. Tushuntirish orqali bola o'z xatti-harakatlarining oqibatini tahlil qilishga, boshqalar manfaatini hisobga olishga va axloqiy javobgarlikni his etishga o'rganadi.[5] Demokratik tarbiyada bola fikr bildirish, munozarada ishtirok etish va tanlov qilish imkoniga ega bo'lgani uchun unda axloqiy fikrlashning yuqori bosqichlari shakllana boradi.[6]

Liberal oilaviy modelda ota-ona bolaga deyarli cheklov qo'ymaydi, qoidalar minimal darajada bo'ladi va bola xatti-harakati ustidan nazorat zaif tarzda amalga oshiriladi.[7] Bunday yondashuvda ota-ona mehribon, lekin talabchan emas; bola esa ko'proq o'z xohishi bilan harakat qiladi, chunki ota-ona uning mustaqilligini ortiqcha aralashuvsiz qo'llab-quvvatlaydi.[8]

Beparvo (e'tiborsiz) tarbiya modeli ota-onaning farzand tarbiyasiga yetarli e'tibor qaratmasligi, hissiy qo'llab-quvvatlashning pastligi va nazoratning sustligi bilan tavsiflanadi. Yana bir tadqiqotda beparvo tarbiya muhitida ulg'aygan o'smirlar o'qish motivatsiyasida sustlik, mas'uliyatni his qilishda qiyinchilik va tengdoshlar bosimiga tez berilish kabi holatlarni ko'proq namoyon qilishi ta'kidlangan (Hines). Psixologik rivojlanish bo'yicha boshqa kuzatuvlar esa e'tiborsiz tarbiya bolaning hissiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, yaqinlik va ishonch hissining shakllanmasligi esa keyingi ijtimoiy munosabatlarda muammolarni kuchaytirishini ko'rsatadi.[9]

Milliy-an'anaviy modelda axloqiy tarbiya avlodan-avlodga o'tgan urf-odatlar, ota-ona o'g'itlari va mahalla muhitiga tayangan holda shakllanadi. Bolalarga hurmat, halollik, odoblilik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar kundalik hayotiy misollar, marosimlar va milliy odatlar orqali singdiriladi. Oila ichida kattalarning xulqi bevosita namuna bo'lib, bola axloqiy me'yorlarni kuzatish va takrorlash orqali egallaydi. Bu modelning afzalligi — bolaning ijtimoiy o'zligini barqaror shakllantirish va milliy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytirishidadir. [10]

Diniy-axloqiy modelda bolalarning axloqiy tarbiyasi diniy me'yorlar, ma'naviy qadriyatlar va muqaddas manbalar asosida shakllanadi. Ota-ona farzandga halollik, adolat, mehr-shafqat, sabr, hurmat kabi fazilatlarni diniy ko'rsatmalar va amaliy kundalik xatti-harakatlarda namoyon qilib o'rgatadi. Oilada ibodat, duolar, diniy marosimlar va hikmatli rivoyatlar bolaga axloqiy me'yorlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu modelning asosiy afzalligi — axloqiy fazilatlarni ichki e'tiqod bilan bog'lab, ularni barqaror hayotiy odatga aylantirishidadir.[11]

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarda axloqiy tarbiya jarayoni oilada shakllanadigan muhit, ota-onaning munosabati va tanlangan tarbiya modeliga bevosita bog'liqdir. Avtoritar model bolada itoatkorlikni kuchaysa-da, mustaqil fikrlashni cheklashi mumkin; demokratik model esa axloqiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish, mas'uliyat va hurmat kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Liberal model bolaga ortiqcha erkinlik bergani bois nazoratning kamayishi bilan birga mas'uliyat hissining sustlashuviga olib kelishi mumkin. Beparvo yondashuv esa axloqiy shakllanish uchun eng xavfli bo'lib, hissiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi barqaror axloqiy me'yorlarning shakllanmasligiga sabab bo'ladi. Milliy-an'anaviy va diniy-axloqiy modellarning ustunligi esa bolada ma'naviy qadriyatlar, hurmat, halollik, vatanparvarlik, mehr-shafqat kabi fazilatlarning tabiiy shakllanishida ko'rinadi.

Shu asosda aytish mumkinki, bolalarda axloqiy tarbiyani samarali shakllantirish uchun turli yondashuvlarning ijobiy jihatlarini uyg'unlashtirgan, izchil, mehr-muhabbatga asoslangan, muloqotga ochiq oilaviy model eng maqbul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahramonov A., Karimova N., Yuldashova S., Xofizova N. "Bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishning samarali usullar". <https://incop.org/index.php/ens/article/view/1252>
2. Baumrind, D. "Child care practices anteceding three patterns of preschool behavior".1967.
3. Piaget, J. "The Moral Judgment of the Child". 1932.
4. Nishonova, A. "Oilada axloqiy tarbiya". Toshkent: NMIU.2019.
5. Hoffman, M. L. Moral Development. In: Handbook of Socialization Theory and Research. Chicago: Rand McNally, 1969.

6. Kohlberg, L. The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. San Francisco: Harper & Row, 1981.
7. Maccoby, E. E., & Martin, J. A. Socialization in the Context of the Family. In: P. Mussen (Ed.), Handbook of Child Psychology. New York: Wiley, 1983.
8. Rogers, C. On Becoming a Person. Boston: Houghton Mifflin, 1961.
9. Steinberg, L. Adolescence. New York: McGraw-Hill Education, 2016.
10. Karimov, B. Milliy qadriyatlar va tarbiya jarayoni. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
11. Saidov, A. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Toshkent: Nidoyat, 2017.

